

Sentabr sarhisobi

IQTISODIY O‘SISH, MUNOSIB HAYOT, TINCHLIK, XAVFSIZLIK ASOSI – OMILKORLIK VA MEHNAT

Jurnalistlar maqola yozish jarayonida tez-tez qo‘llaydigan bir yondashuv bor: yoritilayotgan mavzuga oid voqea, hodisa, fakt, yangiliklar ketma-ket taqdim qilinsa, muallif ularning aksariyatiga qisqacha to‘xtaladi va bitta (yoki ikkita) eng muhimi haqida, bunisi endi alohida mavzu ekanini urg‘ulab, batafsil bayon qiladi. Deylik, Olimpiya musobaqalarida turli sport turi bo‘yicha bir kunda erishilgan qator yaxshi natijalarni tahlil qilishga to‘g‘ri kelganda, jurnalist kutilmagan yoki jamoaviy qozonilgan muhim g‘alabaga bu “alohida mavzu” deya nisbat berib, uni kengroq yoritadi.



Mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy hayoti, aniqrog‘i, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning **sentabr oyidagi qizg‘in faoliyatining barcha epizodi, istisnosiz, alohida mavzu darajasida bo‘lgani**, bu esa ushbu mavzuni yoritishga chog‘langan har qanday tahririyatning istalgan jurnalistini ham chuqurroq izlanishga majbur qilishi turgan gap. Endi do‘ppini boshdan yechib qo‘yib, quyidagi mushohadalарimiz bilan tanishsangiz, bunga o‘zingiz ham guvoh bo‘lasiz.

1 Yurtimizda istiqbolning 34 yillik tantanalari shukhi hukmron bo‘lgan avgust oyi oxiri va sentyabrning ilk kunlari

Tyanszin shahri SHHT Davlat rahbarlari kengashi yig‘ilishi va “SHHT plus” sammitiga mezbonlik qildi. Unda ishtirok etgan Prezidentimiz tashkilotning siyosiy asoslarini mustahkamlash, mintaqaviy xavfsizlik sohasida hamkorlikni kengaytirish, iqtisodiy va madaniy-gumanitar hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan muhim tashabbuslarni ilgari surdi.

Nafaqat mintaq, balki **dunyodagi vaziyatga ta’sir etuvchi mazkur tashabbuslar** jarang sochgan sammitning muhim yakunlaridan biri sifatida SHHT Mintaqaviy aksilterror tuzilmasi asosida Toshkent shahrida doimiy faoliyat yuritadigan organ — SHHTga a’zo davlatlarning xavfsizlikka

tahdid va xatarlarga qarshi kurashish bo‘yicha universal markazini tashkil etish to‘g‘risida qaror qabul qilinganini aytish o‘rinli. Uning huzurida SHHT Axborot xavfsizligi markazi ham tuziladigan bo‘ldi. Bu qaror esa xavfsizlik sohasidagi hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qilishi e’tirof etildi.

Yangi O‘zbekistonning **dunyodagi mavqeini yuksaltirishga xizmat qilgan sammit** deya baholangan tadbirlar doirasida Prezidentimiz Rossiya, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston, Ozarbayjon, Belarus, Turkiya, Hindiston, Pokiston, Mo‘g‘uliston yetakchilari, shuningdek, BMT Bosh kotibi Antoniu Guterrish va

boshqa delegatsiyalar rahbarlari bilan suhbatlar o‘tkazdi.

So‘ng davlatimiz rahbari Pekin shahrida Ikkinchi jahon urushi yakunlaniganing 80-yilligiga bag‘ishlangan g‘alaba paradi va tantanalari tadbirida ishtirok etdi. Umuman, tashrif mamlakatimizning xalqlar o‘rtasidagi do‘stlik va o‘zaro anglashuvni mustahkamlash, tinchlik, barqaror taraqqiyot va farovonlik yo‘lida mintaqaviy va global darajada konstruktiv muloqotni rivojlantirishga qaratilgan izchil tashqi siyosatining navbatdagi tasdig‘i bo‘ldi.

Davomi 3-betda

RASMIY TOSHKENTNING HAR BIR YANGI TASHABBUSI

XALQARO HAMKORLIKNI MUSTAHKAMLASHGA QARATILGAN G‘OYALAR YARATUVCHISI SIFATIDAGI INTILISHINI NAMOYISH ETADI

Xitoy ekspert-tahlil doiralari vakillari O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 80-yubiley sessiyasidagi nutqi haqida

Chu Li, Pekin xalqaro madaniyat va savdo assotsiatsiyasi ijrochi raisi:

— BMTning nufuzli minbarida O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev mamlakatning kambag‘allikka qarshi kurashishdagi yutuqlarini alohida ta’kidladi. So‘nggi kunlarda Xitoyning yetakchi ommaviy axborot vositalari — “Sinxua” axborot agentligi, “Jenmin jibao” gazetasi, “Kitay” va “CGTN” telekanali Prezident Shavkat Mirziyoyevning Namanganda bo‘lib o‘tgan “Kambag‘allikdan farovonlik sari” III xalqaro forumi ochilish marosimidagi nutqini keng yoritdi.

O‘zbekiston va Xitoy doimiy strategik sheriklar sifatida o‘zaro manfaatli barcha yo‘nalishda, xususan, kambag‘allikni



qisqartirish masalasida ham faol hamkorlik qilmoqda.

O‘zbekiston Prezidenti va Xitoy Raisi tashabbusi bilan O‘zbekiston —

Xitoy hukumatlararo qo‘mitasi tarkibida Kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha quyi qo‘mita tashkil etilgan. Hozirga qadar uning ikkita yig‘ilishi o‘tkazildi.

Bugun Xitoy hukumati bilan hamkorlikda keng ko‘lamli ishlar qilinmoqda va muayyan yutuqlarga erishilmoqda.

10 mingdan ortiq o‘zbek mutaxassisi Xitoyning kambag‘allikni qisqartirish sohasidagi ilg‘or tajribasini o‘rganish bo‘yicha malaka oshirish amaliyotida ishtirok etdi. Muhimi, bu tajriba iqtisodiy va madaniy xususiyatlarni hisobga olgan holda O‘zbekiston sharoitiga moslashtirilmoqda.

O‘zbekiston rahbari tomonidan 2030-yilga qadar jamiyatda kambag‘allikni maksimal darajada kamaytirish maqsadiga erishishda Xitoy tajribasi yetakchi o‘rin tutishiga ishonaman.

Davomi 2-betda

HAR QANDAY TARAQQIYOT TA’LIM BILAN

Dildagi gaplar

Ish faoliyatimni tarbiyachilikdan boshlashimga to‘g‘ri kelgan. Biroq bolaligimdan o‘qituvchi bo‘lishni orzu qilganim bois, 1987-yilda Termiz davlat universitetini tamomlab, hozir ishlayotgan maktabimga o‘qituvchi bo‘lib keldim. Bugun esa qariyb 50 yillik ustozman. Bir jamoada shuncha yil ishlash ham inson uchun katta muvaffaqiyat bo‘lsa kerak aslida.

Qolaversa, turmush o‘rtog‘im ham, o‘g‘lim ham o‘qituvchi ekan, ta’lim sohasiga oilaviy xizmat qilayotganimiz ko‘ksimni g‘ururga to‘ldirib turadi. O‘qituvchilar oilasi degan qarashga munosib bo‘lishga intilish men uchun sharaf. Chunki o‘zimiz ham ustozlarimizga havas bilan qaraganmiz, ulardek bo‘lishni orzu qilganmiz.

Ilk bor sinfxonaga kirganimda jajji o‘quvchilarning menga tikilib qaragani,

har bir so‘zimni diqqat bilan tinglagani yuragimni hayajonga to‘ldirgan. Shu kuniyoq o‘qituvchilik faqat dars o‘tish emas, har bir qalbga yo‘l topish, fikrini o‘qiy bilish, bir sinf bolaga mehningni teng ulasha olish ekanini tushunib yetganman. Shuningdek, o‘qituvchi bilim manbai bo‘lishi barobarida tarbiyachi, tinglovchi, maslahatchi va eng yaqin do‘st sifatida shogirdiga yo‘l ko‘rsatishi kerakligini anglaganman.

Davomi 2-betda

Mulohaza

TIRIKLIK TIMSOLI – TIL

UCHINCHI RENESSANS SARI O‘ZLIK TANTANASI



Prezident qarorlari — hayotda va nazoratda

QAT’IY IJRO INTIZOMI – SAMARADORLIK, MAS’ULIYAT VA YUKSAK NATIJALARGA ERISHISHNING MUSTAHKAM POYDEVORI

Mamlakatimizda har bir sohada kechayotgan islohotlarning tub mohiyatida, avvalo, inson, uning qadri va manfaatlari ustuvorligi turadi. Bunga yurtimizda aholiga sifati ta’lim, tibbiyot, turmush sharoitlarini yaxshilash, har bir insonga o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarishi uchun munosib sharoitlar yaratish yo‘lida erishilayotgan natijalar yorqin misol bo‘la oladi.

Davlatimiz rahbari bundan sakkiz yil muqaddam — 2017-yil yanvarda har bir davlat boshqaruvi organi rahbarining vazifasi o‘zi mas’ul bo‘lgan soha va tarmoqda ishlarning ahvolini tanqidiy baholash asosida zimmasiga yuklatilgan vazifalarni mas’uliyat bilan bajarishdan iborat bo‘lishini qat’iy ta’kidlab, “**Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lib qolishi kerak**”, deya alohida qayd etgan edi.

Shundan kelib chiqib, so‘nggi yillarda zamonaviy boshqaruv uslublarini amaliyotga joriy etish, topshiriqlar ijrosi bo‘yicha nazorat va hisobdorlikni tashkil etishni takomillashtirish, talabchanlikni,



rahbarlarning shaxsiy javobgarligini kuchaytirish bo‘yicha ko‘rilgan qat’iy chora-tadbirlar iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarni chuqurlashtirishni ta’minlash, respublikani barqaror hamda jadal rivojlantirish uchun zamin yaratmoqda.

Davomi 4-betda

Nuqtayi nazar

BMT MINBARIDA AYTILGAN FIKRLAR

MAMLAKATIMIZ OLDIGA QO‘YGAN USTUVOR VAZIFALARNI NAMOYON ETDI



Prezidentimizning BMT Bosh Assambleyasi 80-sessiyasidagi ishtiroki ko‘plab uchrashuv va qabullar bilan ham e’tiborli bo‘ldi. Bunga yaqqol misol sifatida AQSH Prezidenti bilan uchrashuvni alohida ta’kidlash zarur. Chunki mazkur uchrashuv asnosida O‘zbekiston — AQSH munosabatlarida yangi sahifa ochildi. Bu nafaqat ikki davlat o‘rtasidagi muloqotning yangi bosqichi, balki strategik sheriklikni yanada chuqurlashtirish yo‘lidagi muhim qadam sifatida tarixga kirdi. O‘zbekiston va AQSH yetakchilarining yuzma-yuz muloqoti, tom ma’noda, ikki xalq kelajagiga yo‘natirilgan, dunyo siyosiy maydonida katta ahamiyat kasb etgan voqea bo‘ldi.

Davlatimiz rahbari BMT Bosh Assambleyasi sessiyasidagi nutqi davomida qator ustuvor yo‘nalishlarga to‘xtaladi.

Birinchisi, tinchlik va xavfsizlik masalasi. Prezidentimiz global xavfsizlik muammolari, yangi tahdid va chaqiriqlar sharoitida davlatlar o‘rtasida ishonch va hamkorlikni mustahkamlash zarurligini qayd etdi. O‘zbekiston har doim tinchlikparvar siyosatga sodiq ekanini va mintaqaviy

barqarorlikka o‘z hissasini qo‘shishini ta’kidladi. Ikkinchisi, inson huquqlari va demokratiya. Inson huquq va erkinliklarini himoya qilish, jamiyatda adolat va qonun ustuvorligini ta’minlash masalalari nutdagi alohida o‘rin oldi. Yangi O‘zbekistondagi islohotlar inson qadriini ulug‘lash tamoyili asosida amalga oshirilayotgani dunyo hamjamiyatiga yana bir namoyish qilindi.

Davomi 5-betda



RASMIY TOSHKENTNING HAR BIR YANGI TASHABBUSI

XALQARO HAMKORLIKNI MUSTAHKAMLASHGA QARATILGAN G‘OYALAR YARATUVCHISI SIFATIDAGI INTILISHINI NAMOYISH ETADI



Boshlanishi 1-betda

Shuningdek, turizm iqtisodiy rivojlanishning asosiy katalizatorlaridan biri va barqaror rivojlanishga erishish uchun samarali vositadir.

Xitoy tajribasidan kelib chiqib, O‘zbekistonda ham sayyohlarni jalb qilish bo‘yicha katta ishlar bajarilmoqda. Mamlakatlarimiz o‘rtasida vizasiz rejim e‘lon qilingandan so‘ng mashhur Xitoy sayyohlik platformalarida O‘zbekistonga chipta so‘rovi ko‘paydi. Faqatgina 2025-yilning birinchi yetti oyida Xitoy fuqarolarining O‘zbekistonga tashrifi bir necha barobar oshdi.

Bu borada “Xitoyda O‘zbekiston turizmi yili” doirasida shaharlar va viloyatlarda o‘tkazilgan “Roud shou” tadbirlari muhim ahamiyatga ega.

Ishonchim komilki, O‘zbekistonning xitoylik sayyohlar orasidagi shuhrati bundan keyin ham oshib boraveradi.

Van Minmey,

— “Pseacher” jurnali bosh muharriri:

O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Nyu-Yorkda bo‘lib o‘tgan BMT Bosh Assambleyasining yubiley sessiyasidagi ma‘ruzasida an‘anaviy tarzda nafaqat Markaziy Osiyoning, balki butun sayyoraning dolzarb muammolaridan biri bo‘lgan ekologiya mavzusiga alohida e‘tibor qaratdi.

Bu borada O‘zbekistonning yutuqlari, ayniqsa, Orolbo‘yidagi ekotizimni tiklash ishlarida yaqqol ko‘zga tashlanadi. 2030-yilgacha Orol dengizining qurigan tubini 80 foizgacha yashil o‘simliklar bilan qoplash rejası alohida ahamiyatga ega.

O‘zbekistonning xalqaro arenadagi faol sa‘y-harakatlari doimiy ravishda Xitoy ommaviy axborot vositalari, jumladan, bizning nashrimiz diqqat markazida bo‘lib kelmoqda. Yaqinda biz “O‘zbekiston va



BMTning Atrof-muhit bo‘yicha dasturlari (UNEP): samarali tabiiy muhitni muhofaza qilish loyihalarini ilgari surish” sarlavhali maqolani chop etdik.

Unda so‘nggi yillarda O‘zbekiston ekologik sohada xalqaro jamoatchilik orasida faol o‘rin egallaganı, BMTning Atrof-muhit bo‘yicha dasturi (UNEP) tomonidan boshqariladigan yettita asosiy global tashkilotga a‘zo bo‘lgani va tabiiy muhitni muhofaza qilish bo‘yicha to‘qqizta konvensiyada faol ishtirok etayotgani ta‘kidlangan.

Jamoatchilikning O‘zbekistondagi atrof-muhit holati to‘g‘risidagi xabardorligini oshirish maqsadida UNEP ekspertlari ko‘magida Milliy ekologik hisobot ishlab chiqildi. Ushbu hisobotda atrof-muhit holati va iqlim o‘zgarishiga ta‘sir ko‘rsatayotgan omillar baholangan.

“Zamin” xalqaro jamoat fondi UNEP va Gidrometeorologiya xizmati agentligi bilan hamkorlikda amalga oshirayotgan yana bir loyiha havoning ifloslanishini avtomatlashtirilgan monitoring qilishga qaratilgan. Ushbu loyiha doirasida mamlakat bo‘ylab 63 ta monitoring stansiyasini o‘rnatish va markazlashtirilgan tahlil markazini yaratish rejalashtirilmoqda.

Qayd etilgan ma‘lumotlarni hisobga olgan holda O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev boshchiligidamamlakatdadolzarb

ekologik dasturlar, jumladan, O‘zbekistonda o‘tkazilishi rejalashtirilayotgan Suvni tejash bo‘yicha butunjahon forumini o‘tkazish bo‘yicha istiqbolli rejalarni to‘liq qo‘llab-quvvatlaymiz.

Iqlimiy migratsiya masalalarida aniq xalqaro mexanizmlar va huquqiy baza mavjud emasligini hisobga olib, davlat rahbari keng qamrovli xalqaro hamkorlikni nazarda tutuvchi Global paktni qabul qilish taklifini bildirgani mutlaqo o‘rinli bo‘ldi. Bu taklif keng jamoatchilik tomonidan qo‘llab-quvvatlanishi kerak.

Bugun O‘zbekiston Xitoy bilan iqlim o‘zgarishlari tahdidlarini kamaytirish va aholi hayotining ijtimoiy-iqtisodiy sohasiga salbiy ta‘sirlarni yengillashtirish borasida faol hamkorlik qilmoqda.

“Markaziy Osiyo — Xitoy” formati doirasida Ninsya-Xuey avtonom hududida barpo etilayotgan Qumlashuvga qarshi kurash markazi doirasida o‘shma faoliyat to‘g‘risidagi qaror buni aniq ifodalaydi.

Lyu Syuy,

Xitoy xalq universiteti huzuridagi Rossiya, Sharqiy Yevropa va Markaziy Osiyo markazi direktori o‘rinbosari:



— O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh

Assambleyasining 80-yig‘ilishidagi nutqini katta qiziqish bilan tingladim. Ma‘ruzada barqaror rivojlanish dasturlari aniq aks ettirilgan, mintaqaviy xavfsizlik, iqlim o‘zgarishi bilan kurashish, shuningdek, sivilizatsiyalararo mulqotni rivojlantirish masalalariga keng o‘rin ajratilgan.

Xitoy tomoni bugun tez o‘zgarayotgan, murakkab global muhitda yashayotganimiz haqidagi qarashlarni to‘liq qo‘llab-quvvatlaydi. O‘zbekiston yetakchisining Shanxay hamkorlik tashkiloti sammiti va “SHT plus” uchrashuvidagi so‘nggi ishtirokini tahlil qilganda, uning chiqishlari har doim dunyoda yuzaga kelayotgan murakkab jarayonlarni aniq va chuqur baholashi hamda amaliy, konkret takliflariga ega bo‘lishi bilan ajralib turishini ko‘rsatib beradi.

Rasmiy Toshkentning har bir yangi tashabbusi xalqaro hamkorlikni mustahkamlashga qaratilgan g‘oyalar yaratuvchisi sifatidagi intilishini namoyon etadi.

Yaqinda Xitoyning “Diplomat” nashrida chop etilgan “Resurslar o‘rniga innovatsiyalar va g‘oyalar: O‘zbekiston yoshlarining mamlakatning global imijini shakllantirishi” sarlavhali maqolani o‘qib chiqdim.

E‘tiborlisi, Prezident Shavkat Mirziyoyev yoshlarga oid masalalarni rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlashni ustuvor vazifa qilib belgilagan.

Haqiqatan, jahon miqyosida raqobatlardosh bo‘lgan yosh mutaxassislarisiz barqaror iqtisodiyot barpo etish yoki samarali xalqaro hamkorlikni yo‘lga qo‘yish imkonsiz.

Dunyo hamjamiyati O‘zbekiston yetakchisining Jahon yoshlarining tinchlik sari harakatini ta‘sis etish va qarorgohini mamlakatingizda joylashtirish taklifini yakdli qo‘llab-quvvatlashiga ishonaman.

Gao Veychjun, Sog‘liqni saqlash masalalari bo‘yicha davlat qo‘mitasi huzuridagi xalqaro hamkorlik markazi direktori:



— Prezident Shavkat Mirziyoyev nutqida sog‘liqni saqlash masalalari, xususan, onkologik kasalliklar kabi dolzarb muammolarga alohida e‘tibor qaratildi.

Xitoy raisi Si Szinpin 1-sentabr kuni Tyanszinda o‘tgan “SHT plus” formatidagi yig‘ilishda keyingi besh yilda Xitoy tomoni SHT davlatlari uchun saratonni skrinning qilishga doir 10 mingga amaliyot o‘tkazishga tayyorligini e‘lon qildi.

Bu davlatlarimizda sog‘liqni saqlash sohasidagi umumiy ustuvor yo‘nalishlarni yaqqol ko‘rsatadi.

Tashkilotimiz O‘zbekistonning tegishli tibbiyot muassasalari bilan hamkorlikda kasalliklarni davolash bo‘yicha qo‘shma dasturlarni faol amalga oshiryapti.

Shu munosabat bilan BMT Bosh Assambleyasi doirasida Jahon sog‘liqni saqlash tashkilotining faol qo‘llab-quvvatlovi ostida o‘tkazilishi rejalashtirilgan bolalar onkologiyasi masalalariga bag‘ishlangan maxsus tadbir tashabbusini qo‘llab-quvvatlaymiz.

“Dunyo” AA

Pekin shahri

Dildagi gaplar



HAR QANDAY TARAQQIYOT TA’LIM BILAN



Ra‘no PIRMATOVA, Sherobod tumanidagi 1-umumiy o‘rta ta‘lim maktabi boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi, II darajali “Sog‘lom avlod uchun” ordeni sohibi

Boshlanishi 1-betda

Buning uchun unga sabr, adolat, doimiy o‘z ustida ishlashga intilish zarurligini chuqur his qilganman. Zero, harf tanimagan o‘quvchiga yozish va o‘qishni o‘rgatish qanchalar mashhaqqatli ekanini o‘quvchilarimiz ham ota-ona bo‘lib, farzandlariga bir bor uy vazifalarini tayyorlatganida tushunib yetadi.

Kimlardir boshlang‘ich sinf o‘qituvchilariga osonroq, bolalar itoatkor, qiziquvchan deb o‘ylaydi. Biroq boshlang‘ich sinf bolalari bilan ishlash ancha murakkab. Bunda o‘ta hushyorlik ham talab

etiladiki, uyning poydevori uning mustahkamligida qanchalik ahamiyatli bo‘lsa, boshlang‘ich ta‘lim inson hayotida shunday o‘rin tutadi. Shuni his qilgan holda ustozlik faoliyatim davomida yuzlab shogirdlarni o‘z farzandimdek tarbiyalaganimdan, ular hayotda o‘z yo‘lini topib ketganidan baxtiyorman. Ustozga shogirdning kamolini, go‘zal hayotini ko‘rishning o‘zi mukofot degan gapni shunchaki aytilmagan. Sobiq o‘quvchilarimiz sog‘inch bilan kelib, “Ustoz, siz harf tanitmasangiz shu darajaga yetmasdim”, deganida ko‘zimizdan yosh chiqib ketadi. Dasta-dasta gullar yuragimizda ochilgandek bo‘ladi go‘yo. Shu kunlarga, shunday go‘zal davrga yetib kelganimiz uchun shukrona aytamiz. Chunki bir vaqlar o‘quv yilini paxta dalalarida o‘tkazarkanmiz, o‘qituvchining jamiyatdagi o‘rni yuksalishini, shunday zahmatlardan ozod bo‘lishni orzu qilardik.

Bugungi islohotlar esa o‘sha orzularimizning ro‘yobi bo‘lmoqda. Maktablar yangilanyapti, o‘qituvchilarga e‘tibor oshdi, bilimni qadrlash bosh mezonga aylanayapti. Bu esa biz uchun katta imkoniyat. Endilikda inson va uning mashhaqqatli mehnati qadr topayotgani chin. Bugun ustoz ahlining ham yelkasiga shamol tekkani, pedagog ham o‘z kasbidan boyiyayotganini oddiy odamlar ko‘rib-bilib turibdi. Shuning uchun endi jamiyatda o‘qituvchiga havas qiladiganlar

ko‘paydi. Farzandini pedagogika oliygohlarida o‘qitish istagidagi otanonalar safi kengaydi. Maktabda dars berish eng sharaflı vazifalardan biriga aylandi. Chunki yangi O‘zbekistonda ustozning qadri har qachongidan baland ko‘tarildi. Aks holda, men kabi chekka hududlardagi oddiy muallimlar davlat rahbari e‘tiboriga tushmas edi.

2023-yilda “Xalq ta‘limi a‘lochisi” ko‘krak nishoni bilan taqdirlangan bo‘lsam, 2 yil o‘tib, II darajali “Sog‘lom avlod uchun” ordeni bilan mukofotlandim. Prezidentimiz biz, ustozlarni o‘zi qutlab, juda samimiy, iliq gaplarni gapirdi. Bayram munosabati bilan barcha soha vakillariga yo‘llangan tabrikda esa biz, pedagog, murabbiylarni yana bir karra ulug‘lab, tizim xodimlariga, albatta, yangi imtiyozlar, imkoniyatlar yaratilishini takror aytib o‘tdi. Demak, qilayotgan ishlarimiz, sa‘y-harakatlarimiz mamlakat kelajagi uchun manfaatli bo‘lyapti. Ezgu niyatimiz qaysidir ma‘noda amalimizda sezilib, atrofdegilarga ham ko‘rinyapti. Buning uchun cheksiz minnatdormiz. Aslida, busiz ham ko‘plab o‘qituvchilar o‘z kasbiga bog‘lanib qoladi. Shu qatorda men ham maktabsiz, bolalarsiz hayotimni tasavvur qila olmayman. Shunday ekan, bu yog‘iga ham bor kuchim va salohiyatimni yosh avlod tarbiyasi, maktab ta‘limiga bag‘ishlashdan tolmayman.



USHBU MAQOLANI QORAALPOQ TILIDA HAM O‘QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!



Izhor

BUGUNGIDEK E‘TIBOR VA RAG‘BAT HECH QACHON BO‘LMAGAN

Bu yil sentabr oyi biz, pedagoglar oyi bo‘ldi, desak mublag‘a emas.

Davlatimiz rahbarining o‘zi ko‘nglimizni ko‘tarishga kirishgani mamlakatimiz bo‘ylab bayram kayfiyatini barvaqt yoydi. Davlat mukofotlari bilan taqdirlangan muallimlar qalbi quvonchga to‘ldi. Ular qatori mening ham 36 yillik pedagogik faoliyatim davlat mukofotiga munosib ko‘rildi. “Shuhrat” medali bilan mukofotlandim.



Lola BOLTAYEVA, Yunusobod tumanidagi 273-maktab o‘qituvchisi, “Shuhrat” medali sohibi

Prezidentimiz 1-oktabr kuni soha vakillariga tabrik yo‘llab, o‘qituvchilar hayotini dunyodagi eng ulug‘ va olijanob ishga — navqiron avlod ta‘lim-tarbiyasiga bag‘ishlagan muhtaram insonlar sifatida ulug‘ladi. Qutlovda ta‘limga qaratilayotgan e‘tibor, bugungi muallimning nufuzi, jamiyatdagi maqomi to‘la aks etdi. Shu ma‘noda, ushbu tabrik har bir ta‘lim muassasasida ishlayotgan o‘qituvchi va murabbiylarni ruhlantirib yuborganiga shubha yo‘q.

Chindan ham, so‘nggi yillarda muallimlarga ko‘rsatilayotgan hurmat-e‘tibor cheksiz. Zero, hech bir davrda pedagoglarga burchalik e‘tibor va rag‘bat bo‘lmagan. Dars berishdan ko‘ra qog‘ozbozlik ishlari,

obodonlashtirish yumushlari muhim bo‘lgan davrlarniyam ko‘rdik. Bir kuni dars o‘tayotsam, yuqori tashkilotdan qo‘ng‘iroq bo‘ldi. “Hozir kelib, falon joyni supurib ketarkansiz”, dedi qo‘ng‘iroq qilgan kishi. “Ie, darsdaman-ku, avtobusda shu kiyim bilan supurgi ko‘tarib yuramanmi?” deb yig‘laganman o‘shanda. Biroq shunday pallalarda ham kasbimdan voz kechmadim. Chunki ustozlikka mehr onam tufayli uyg‘ongan. U hozirgi O‘zbekiston Milliy universitetining geografiya fakultetida



40-yilga yaqin o‘qituvchilik qilgan. Maktabni tamomlaganimda “Mening kasbimni davom ettirasammi?”, deb so‘ragan. O‘shanda hech ikkilanmay hujjatlarimni geografiya yo‘nalishiga topshirib kelganman. Shukrki, dars bergan o‘quvchilarimning juda ko‘pi geografiyaga qiziqqan. Shu sohaga oid yoki yaqin yo‘nalishlarda o‘qib, ishlayapti.

Darslarimni jon qulog‘i bilan tinglab, fan olimpiadalarida qatnashgan, menga havas qilib geografiya o‘qituvchisi bo‘lgan shogirdlarim bor. Ular har bir yutug‘imdan quvonib, “Bizga ham sizning yo‘lingizni bersin, ustoz”, deya yo‘qlab turishadi. Kasb bayramimiz kuni ham xonadonimiz shogirdlarga to‘ladi. Bu, albatta, o‘zgacha q‘urur, kasbdan faxrlanish tuyg‘usini beradi kishiga.

O‘qituvchilik kasbini egallamoqchi bo‘lgan yoki endigina ish boshlash arafasida turgan yoshlarga qarab, “Sizlar katta imkoniyatlar davrida yashayapsiz”, deyman. Shu yoshda ham yaratilayotgan sharoitlardan unumli foydalanib, 100 foiz ustama olayotganimni misol keltiraman. Chunki endi oyilgimning ikki barobari miqdorida maosh olaman. Aslida, hozir o‘qituvchining ming dollar maosh olishi ham oddiy hol bo‘lib qoldi. Vaholanki, bundan 4-5 yil avval bunga hech kim ishonmagandi. O‘quvchilari xalqaro olimpiadalarda yuqori o‘rinlarni egallagan muallimlar ham alohida rag‘batlantirilyapti. Bunday o‘zgarishlar o‘qituvchilarga kuch beradi, yangi yutuqlarga ilhomlantiradi. Shu ma‘noda, geografiya darsliklarini takomillashtirishda ham ishtirok etayotganimdan xursandman. Yaqin kelajakda bu borada sezilarli natijalarga erishamiz. Zero, bizni davlat, jamiyat, ustozni e‘zozlovchi xalqimiz qo‘llab-quvvatlab turibdi.



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz



Prezident qarorlari — hayotda va nazoratda

QAT'IIY IJRO INTIZOMI — SAMARADORLIK, MAS'ULIYAT VA YUKSAK NATIJALARGA ERISHISHNING MUSTAHKAM POYDEVORI



Jo'rabek MIRZAMAHMUDOV,
O'zbekiston Respublikasi
energetika vaziri

Boshlanishi 1-betda

Qolaversa, keyingi yillardagi islohotlar, inson va uning manfaatlarini ta'minlash borasida hayotga tatbiq qilinayotgan strategik dasturlar ham ana shu ustuvor g'oyani ro'yogba chiqarishga xizmat qilmoqda.

Prezidentimizning 2021-yil 10-fevraldagi “Qonunchilik hujjatlari ijrosini samarali tashkil etishda davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari rahbarlarining shaxsiy javobgarligini kuchaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi farmoni, 2021-yil 31-maydagi “Ijro.gov.uz” ijro intizomi idoralararo yagona elektron tizimi samarali faoliyat ko'rsatishini ta'minlashga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi qarori hamda shu yil 25-iyuldagi “Davlat organlari va tashkilotlarda ijro intizomini mustahkamlash bo'yicha yagona va uzluksiz “texnologik zanjir”ni tashkil qilish borasidagi ustuvor vazifalar belgilandi.

Ushbu yo'nalishda Energetika vazirligi va uning tasarrufidagi tashkilotlarda ham ishlar tizimli davom etmoqda.

Faoliyatning asosiy jihatlaridan biri — ijro intizomini yanada mustahkamlash,

mustahkamlash, tarmoqni rivojlantirishning yangi bosqichlariga o'tish maqsadida yoqilg'i-energetika sohasida 9 ta qonun, Prezidentning 14 ta farmoni va 111 ta qarori hamda Vazirlar Mahkamasining 139 ta qarori qabul qilindi.

Ushbu huquqiy hujjatlarda belgilab berilgan vazifalar ijrosini ta'minlash orqali yoqilg'i-energetika resurslarini ishlab chiqarish hajmi oshirilib, yetkazib berish sifati yaxshilanishiga erishilmoqda.

So'nggi yillardagi sa'y-harakatlar natijasida yurtimizda umumiy quvvati **4682 megavatt** (quyosh — 3030, shamol — 1652 megavatt) bo'lgan **12 ta quyosh va 5 ta shamol** elektr stansiyasi ishga tushirildi va ular “yashil” energiya ishlab chiqarmoqda. Bundan tashqari, umumiy quvvati **300 megavatt** bo'lgan **2 ta energiya saqlash tizimi** hamda umumiy quvvati **3274 megavatt** bo'lgan **8 ta zamonaviy issiqlik elektr stansiyasi** ishga tushirildi. Solishtirish uchun aytadigan bo'lsak, 1991-2016-yillarda (25 yil ichida) 3300 megavatt quvvat ishga tushirilgan, xolos.

Hududlarda energiya ta'minoti barqarorligini ta'minlashga qaratilgan loyihalar izchillik bilan olib borilmoqda.

2021-yilda bo'lgan O'zbekiston energetika sohasi uchun yangi va birinchi qaldirg'och loyiha — Navoiy viloyati **Karmana tumanida 100 megavatt** quvvatli quyosh fotoelektr stansiyasi ishga tushirildi. 2022-yilda Samarqand viloyatining **Nurobod tumanida 100 megavatt** quvvatli ikkinchi quyosh fotoelektr stansiyasi faoliyat boshladi.

2023-yilda Jizzax viloyati G'allaorol tumanida **220 megavatt**, Buxoro viloyati Qorovulbozor tumanida **200 megavatt**, 2024-yil may oyida yana **100 megavatt**, 2023-yilda Qashqadaryo viloyati Nishon tumanida **200 megavatt**, 2024-yilda yana **100 megavatt**, 2023-yilda Surxondaryo viloyati Sherobod tumanida **457 megavatt** quvvatli va 2024-yilda Toshkent viloyati Yuqori Chirchiq tumanida umumiy quvvati **200 megavatt** bo'lgan **quyosh fotoelektr stansiyalari** hamda 2023-yilda Navoiy viloyati Tomdi tumanida **100 megavatt** quvvatli birinchi **shamol elektr stansiyasi**



iste'molning yuqori vaqtlarida tarmoqni barqarorlashtirish va qo'shimcha zaxira quvvatlarini yaratish uchun foydalanilmoqda.

Natijada **2024-yil yakuni bilan elektr energiyasi generatsiyasi, ya'ni ishlab chiqarish bilan bog'liq muammolarning to'liq bartaraf etilishiga erishildi.**

Ushbu quvvatlarning asosiy qismi to'g'ridan to'g'ri yo'naltirilgan xorijiy investitsiyalar hisobiga ishga tushirilgani diqqatga sazovordir. Loyihalarni xorijlik investor va mutaxassislar, jamoatchilik vakillari juda yuqori baholab, O'zbekistonni qayta tiklanuvchi energiya manbalarini ishlab chiqaruvchi yetakchi davlatlardan biri sifatida e'tirof etmoqda.

Yurtimizda ishga tushirilgan quyosh va shamol elektr stansiyalari tomonidan joriy yilning to'qiz oyi yakuni bilan **8 milliard kilovatt-soatdan ortiq** “yashil” energiya ishlab chiqarilishi kutilmoqda. Bu umumiy elektr energiyasi ishlab chiqarish hajmining 25-30 foizini tashkil qiladi.

Sohada yana bir tarixiy qadam tashlandi. 2021-yildan O'zbekiston tarixida birinchi marta aholi xonadonida o'rnatilgan quyosh panellari yordamida ishlab chiqarilgan elektr energiyasini davlat tomonidan sotib olish amaliyoti yo'lga qo'yildi.

Bunda aholidan har bir kilovatt-soat elektr energiyasi 1000 so'mdan sotib olinadi. 2025-yilning yanvar-avgust oylarida quyosh panellari o'rnatgan 35 ming 284 fuqaroga 120 milliard so'mdan ziyod subsidiya berilgan. Mazkur sohada qabul qilingan mexanizmga ko'ra, ushbu subsidiyalar “Solliq” mobil ilovasi orqali fuqarolarning bank plastik kartalariga to'g'ridan to'g'ri o'tkazib berilmoqda.

2025-yilda ham mazkur ishlar izchil davom ettirilmoqda. Ya'ni bu yil ham yangi va yirik hajmdagi generatsiya quvvatlari ishga tushirilmoqda. Masalan, umumiy quvvati **3000 megavatt**dan ortiq **quyosh va shamol, 1167 megavatt quvvatli issiqlik elektr stansiyalari, 1500 megavatt**dan ortiq **energiya saqlash tizimlari** foydalanishga topshirilishi rejalashtirilgan.

O'tgan yili **81,5 milliard kilovatt-soat** elektr energiyasi ishlab chiqarilgan bo'lsa, 2025-yil yakuni bilan bu **85,5 milliard kilovatt-soatga yetishi** kutilmoqda. Solishtiradigan bo'lsak, 2016-yilda **59 milliard kilovatt-soat** elektr energiyasi ishlab chiqarilgan edi. Ya'ni **ishlab chiqarish hajmi 8 yilda 40 foizdan ko'proqqa oshdi.**

2017-2024-yillarda yurtimiz bo'ylab jami uzunligi 65,5 ming kilometr elektr uzatish tarmog'i qurildi, 21 mingga transformator punkti yangilandi. Yuqori kuchlanishli podstansiyalar quvvati 10 ming megavolt ampgera oshirildi. Natijada 8000 dan ortiq mahallaning elektr ta'minoti yaxshilanishiga erishildi. Holbuki, 1991-2016-yillar davomida jami 9300 kilometr elektr uzatish tarmog'i va 4 800 ta transformator punkti qurilgan.

Qo'shni Afg'oniston bilan elektr energetikasi va neft-gaz sohalarida hamkorlik qilinmoqda. Yaqinda O'zbekiston — Afg'oniston energetika kompaniyalari bilan qator yangi loyihalarni amalga oshirish bo'yicha kelishuvlarga erishildi.

2030-yilgacha reja — “yashil” energiya quvvatlarini oshirish orqali ta'minot barqarorligiga erishish

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, yurtimizda elektr energiyasi ishlab chiqarish quvvatlarini sezilarli darajada oshirish, ayniqsa, bu borada tabiiy resurslarni asrash, ekologiyamizni yaxshilash maqsadida quyosh, shamol va gidroelektr stansiyalar ishga tushirilmoqda.

2030-yilga borib, iste'molchilarning elektr energiyasiga talabi hozirgi qariyb 70 milliard kilovatt-soatdan 120 milliard kilovatt-soatga oshishi kutilmoqda. Ushbu talabni qondirish maqsadida yangi va “yashil” ishlab chiqarish quvvatlari yaratiladi.

Bugungi kunda yurtimizda umumiy elektr energiyasini ishlab chiqarishda “yashil” energiya manbalari ulushi 25-30 foizni tashkil qilayotgan bo'lsa, **2030-yilga borib, 54 foizga yetkazilishi rejalashtirilgan.** Xususan, “yashil” elektr stansiyalarimiz orqali yiliga 60 milliard kilovatt-soat elektr energiyasi ishlab chiqarish imkoniyati yaratiladi. Natijada yiliga qariyb 18 milliard kub metr tabiiy gaz tejaliib, atmosferaga 25,2 million tonna zararli gazlar chiqarilishining oldi olinadi. Bir so'z bilan aytganda, 2030-yilga borib, yurtimizda ishlab chiqariladigan elektr energiyasining

rahbarlari hamda barcha darajadagi hokimlarning shaxsiy javobgarligini kuchaytirish maqsadida ijro intizomini mustahkamlash bo'yicha ustuvor vazifalar belgilab berilgan. Xususan, qonunchilik hujjatlari va topshiriq loyihalarini tayyorlashda nazoratni tashkil qilish, ularning puxta iqtisodiy, moliyaviy va huquqiy ekspertizadan o'tkazilishi, vakolatli davlat boshqaruvi organlarida o'z vaqtida kelishilishini ta'minlash, topshiriqlarning ijrochilarga tezkor yetkazilishi, belgilangan dolzarb vazifalar mohiyati va ahamiyati keng jamoatchilik va aholi o'rtasida tushuntirilishi hamda ijro muddati va mas'ullarni belgilash bo'yicha “yo'l xaritalari”ni tashkil etish shular jumlasiga kiradi.

Energetika va neft-gaz sohalarining salmoqli qismi xavfli ishlab chiqarish obyektlari hisoblanib, rahbar va ishchi-xodimlardan temir intizomga rioya etish talab qilinadi. Shuning uchun tarmoqda “Ijro.gov.uz” ijro intizomi idoralararo yagona elektron tizimi joriy etildi.

2025-yilda qonunlar, farmon, qaror, farmoyishlar va davlatimiz rahbari raisligida o'tkazilgan yig'ilishlar bayonlarida Energetika vazirligi bo'yicha jami 1517 ta topshiriq belgilangan, shundan hisobot davrida 940 tasining ijrosi ta'minlangan.

Bundan tashqari, qonunchilik hujjatlari va topshiriqlarni bajarishda kamchiliklarga yo'l qo'ygani va topshiriqlar ijrosini sifatli va o'z vaqtida tashkil etishda zarur choralar ko'rmagani uchun 5 xodimga intizomiy jazo choralari qo'llangan, 12 nafari esa qat'iy ogohlantirilgan.

Bunda asosiy maqsad xodimlarni jazolash emas, balki iste'molchilar manfaatlarini himoya qilishda belgilab berilgan vazifalar



54 foizi qayta tiklanuvchi energiya manbalari hissasiga to'g'ri keladi.

Gidroelektr stansiyalar quvvati hozirgi 2 ming 200 megavatt dan qariyb 5 ming megavattga yetkaziladi. Shuningdek, umumiy quvvati 4 ming 500 megavattga teng bo'lgan energiya saqlash tizimlari ishga tushiriladi.

Uzunligi 100 ming kilometr elektr uzatish tarmoqlari, 20,5 mingga transformator punkti yangidan quriladi, shuningdek, yuqori kuchlanishli podstansiyalar quvvati 30 ming 234 megavolt ampgera oshiriladi.

Bu ishlar, o'z navbatida, iste'molchilarning elektr ta'minoti ishonchligi va barqarorligini oshirishga xizmat qiladi.

Prezidentimizning 2025-yil 17-yanvardagi “2025-yilda aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qaroriga muvofiq, respublika bo'ylab og'ir toifadagi (100-500 kVt) quyosh fotoelektr stansiyalari grant mablag'lar hisobiga beg'araz o'rnatib berilmoqda.

Ushbu quyosh panellari o'rnatilishi hisobiga, eng avvalo, o'sha mahallalarda yangi ish o'rnlari yaratiladi, shuningdek, ishlab chiqarilgan elektr energiyasi hududiy elektr tarmoqlariga sotiladi va tushgan mablag' mahalla fondiga o'tkaziladi. Natijada mahalla faollari ehtiyojmand oilalarga yordam ko'rsatadi. Bir so'z bilan aytganda, elektr energiyasidan tushgan mablag' ushbu mahallalar aholisi farovonligi uchun sarflanadi.

Shaxsiy mas'uliyat va temir intizom — islohotlarni amalga oshirishda mustahkam poydevor

Davlatimiz rahbarining tegishli farmoni bilan hukumat, davlat boshqaruvi organlari

So'nggi yillardagi sa'y-harakatlar natijasida yurtimizda umumiy quvvati **4682 megavatt** (quyosh — 3030, shamol — 1652 megavatt) bo'lgan **12 ta quyosh va 5 ta shamol** elektr stansiyasi ishga tushirildi va ular “yashil” energiya ishlab chiqarmoqda. Bundan tashqari, umumiy quvvati **300 megavatt** bo'lgan **2 ta energiya saqlash tizimi** hamda umumiy quvvati **3274 megavatt** bo'lgan **8 ta zamonaviy issiqlik elektr stansiyasi** ishga tushirildi. Solishtirish uchun aytadigan bo'lsak, 1991-2016-yillarda (25 yil ichida) 3300 megavatt quvvat ishga tushirilgan, xolos.

qonunchilik hujjatlari va topshiriqlar ijrosi bo'yicha Adliya vazirligi, Vazirlar Mahkamasi va Hisob palatasi bilan birgalikda tizimli ishlash yo'lga qo'yilgan. Xususan, muammo va kamchiliklarni o'z vaqtida bartaraf etish hamda topshiriqlar ijrosini samarali tashkil qilish yuzasidan vazirlik tizimida amaliy seminarlar o'tkazilmoqda hamda ularning ijrosi har hafta dushanba va juma kunlari yig'ilishlarda muhokama qilinmoqda.

O'zbekiston Prezidenti va Vazirlar Mahkamasi hujjatlarida vazirlikka yuklatilgan topshiriqlarning barvaqt va sifatli bajarilishini ta'minlash maqsadida tegishli vazir o'rinbosarlari va mas'ul tarkibiy bo'linmalar kesimida tasdiqlangan “yo'l xarita”lari va “kunlik kalendar grafik”lari bo'yicha ishlanmoqda.

Topshiriqlarda belgilangan maqsadlarga erishilishi hamda ijro intizomi holati vazirlikda joriy etilgan mas'ul rahbar va xodimlar faoliyatining samaradorlik ko'rsatkichlari (KPI) bilan baholab boriladi.

Mas'uliyat va intizom orqali generatsiya bilan bog'liq muammolar bartaraf etildi

Energetika tarmog'ini jadal rivojlantirish, bu borada yangi ishlab chiqarish quvvatlarini ishga tushirish, uzatish va taqsimlash tarmoqlarini yangilashni jadallashtirish va shu orqali aholi farovonligini ta'minlash hamda iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirishga e'tibor tufayli sohada qisqa vaqt ichida tarixiy islohotlar amalga oshirildi.

Xususan, iste'molchilar manfaatlarini himoya qilish, sohada huquqiy bazani



Umuman olganda, davlatimiz rahbarining dunyodagi eng nufuzli xalqaro va universal tashkilot bo'lmish BMT minbarida turib bildirgan fikrlari hamda ilgari surgan taklif-tashabbuslari global xususiyatga ega. Ular nafaqat alohida mamlakat yoki mintaqaga, balki jahon ahamiyatiga molik masalalarni qamrab olgan.

Qabulxona: (71) 233-56-33	Devonxona va e'lonlar: (71) 233-70-98	E-mail: info@yuz.uz	Web-sayt: www.yuz.uz ; (71) 233-47-05	Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.	O'ZA yakuni — 20:55
---------------------------	---------------------------------------	--	---	--	---------------------